



**XALQ OG'ZAKI IJODI: YOSH AVLOD TARBIYASIDA
MILLIY QADRIYATLARNING ASOSIY MEZONI**

Ismoilova E'zoza Shavkatjon qizi

Boboqulova Sumbula Nizomiddin qizi

Boqiyeva Gulrux Sodiqovna

Shahrisabz davlat pedagogika inisituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimizning milliy va ma'naviy merosini, asrlar davomida saqlanib kelinayotgan qadriyatlarini o'rganish, odat va udumlarimizda isrofgarchilik va dabdabozlikdan saqlash hamda bag'rikenglik, insoniylik, yuksak etiqod, mehr-oqibat tamoillariga tayangan xalq og'zaki ijodining tarbiya jaroyonlarida oqilona foydalanish haqida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, maqollar, tez aytish, laparlar.

Аннотация: В статье мы изучим национальное и духовное наследие нашего народа, ценности, сохраненные веками, защитим наши обычаи и традиции от расточительности и роскоши, рационально используем их в воспитательном процессе народного творчества на основе упомянутые принципы толерантности, гуманности, высокой веры и доброты.

Ключевые слова: Образование, пословицы, поговорки, анекдоты.

Abstract: In this article, we will study the national and spiritual heritage of our people, the values that have been preserved for centuries, protect our customs and traditions from extravagance and luxury, and use them rationally in the educational processes of folk art based on the principles of tolerance, humanity, high faith, and kindness. Mentioned about.



Key words: Education, proverbs, sayings, jokes.

KIRISH. Xalq og'zaki ijodi xalqimizning asrlar davomida shakllangan orzu-umidlari, sabr-matonati, milliy urf-odatlar va turmush tarzini o'zida aks ettiradi. Xalq og'zaki ijodini o'rganish nafaqat xalqimiz tarixini chuqurroq anglashga, balki uni muloqaza qilish va o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiya jarayonida samarali qo'llashga xizmat qiladi. Millatimizning xalq og'zaki irod namunalarida mardlik, jasorat, or-nomus, sadoqat va milliy g'urur kabi fazilatlar kuchli aks etgan. Bugungi kunda bunday fazilatlarni yoshlar tarbiyasida bolalikdanoq singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadid ma'rifatparvarlaridan biri Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir". Ushbu fikr hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Sharq xalqlari uchun farzandlarni to'g'ri tarbiyalash va ularni komil inson etib voyaga yetkazish eng oliy vazifalardan biri hisoblangan. Qadim zamonlardan buyon ajdodlarimiz xalq og'zaki ijodini tarbiya vositasi sifatida qo'llab kelganlar. Maqol, topishmoq, ertak, lof, alla, tez aytish, lapar kabi janrlar bolalar tarbiyasida ezgu his-tuyg'ularni singdirish va ularni axloqiy barkamollikka yetaklashga qaratilgan. Bola tarbiyasi, avvalo, oilaga bog'liq ekanligi ko'plab tajribalar orqali tasdiqlangan. Oilada tarbiyaning ilk bosqichlaridayoq xalq og'zaki ijodidan, jumladan alladan foydalaniladi. Ona farzandiga alla aytish orqali uning kelajakda komil inson bo'lishini orzu qiladi va bu ezgu niyatlarini allada ifoda etadi. Farzand biroz ulg'aygach, ertaklar orqali ezgu xulq-atvor va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtiradi.

Xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda chuqur bo'lib, uning barcha janrlarida insonparvarlik g'oyalari yetakchi o'rinda turadi. Xalq qo'shiqlari, maqollar, matallar, hikmatlar va ertaklar asrlar davomida shakllangan xalq donoligining ifodasidir. Har bir maqolda "talab va ibrat" o'z aksini topgan bo'lib, ular hayotning turli ko'rinishlarini



umumlashtirib, mantiqiy xulosalar beradi. Maqollar nafaqat ma'naviy ehtiyojlarni qondiradi, balki aqliy bilimlar va ahloqiy fazilatlarni mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish choralari ko'rilmogda. Ushbu fan 2020/2021 o'quv yilidan boshlab 1-9-sinflarda, 2021/2022 o'quv yilidan esa 10-11-sinflarda joriy etildi. Mazkur fan orqali o'quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlari inobatga olinib, ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyat singdiriladi. Shuningdek, fan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etishga yo'naltirilgan.

Xalq og'zaki ijodi milliy va ma'naviy qadriyatlarga suyanadi. Ushbu ijod namunalaridan ta'lim jarayonida foydalanish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi globallashuv davrida yoshlarning qalbi va ongini ma'naviy boyitish uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridanoq ularni o'z fikrini erkin bildirishga o'rgatish zarur. Xalq og'zaki ijodining mazmundorligi va mantiqiy mukammalligi o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularda insoniy fazilatlarni shakllantiradi.

Xalq og'zaki ijodi orqali bolalarning ongida milliy qadriyatlarga hurmat, tarixni chuqur anglash va mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Ushbu asarlar avloddan-avlodga o'tib kelgani sababli oson o'zlashtiriladi va yod olinadi. To'g'ri yondashuv va aniq uslub orqali xalq og'zaki ijodining ta'lim-tarbiyadagi samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Xalq og'zaki ijodi namunalariga asoslangan holda o'quvchilarni tarbiyalash doimo yuqori samaradorlikka ega. Chunki xalq og'zaki ijodi hayotning barcha sohalarini qamrab oladi va inson hayoti uchun zarur bo'lgan fazilatlarni shakllantiradi. Xalq og'zaki ijodidan o'rinli va maqsadli foydalanish yosh avlodning barkamolligi, milliy qadriyatlarga sadoqati va mehnatsevarlik fazilatlarini rivojlantiradi. Shunday ekan, yosh avlod tarbiyasida xalq



og'zaki ijodidan samarali foydalanish milliy qadriyatlarimizni saqlash va ulug'lash yo'lida muhim vosita hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Madayev.O, Sobitova.T. "Xalq og'zaki poetik ijodi"- Toshkent "Sharq" nashriyot matba aksiyadorlik jamiyati.
2. Kasimova.O. "Talim-tarbiya jarayonini tashkil etishda xalq og'zaki ijodi"
3. Jumaboyev.M. "Bolalar adabiyoti va folklori" - Toshkent O'qituvchi 1990
4. Omonov, Bahodir Nurillayevich. "MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA–MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 4.21 (2024): 529-535.
5. Очилова, Гўзал Араловна. "Чучук Сув Танқислиги Муаммосининг Марказий Осиёга Хавфи. Омонов Баходир Нуриллаевич."
6. Омонов, Баходир Нуриллаевич. "Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения." Gospodarka i Innowacje. 44 (2024): 235-242.